

MATNAZAR ABDULHAKIM IJODIDA YOZ OBRAZI

Mohichehra Rustamova

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7059321>

Annotatsiya. Yoz obrazining bir lahzalik holatidan unumli foydalangan va ushbu fasl haqidagi bizning tasavvurlarimizga qo‘shimcha ma‘no yuklaydigan, oddiy lekin hayotiy misollar bilan kitobxonni o‘ziga jalb qila oladigan she‘riyat egasi Matnazar Abdulhakim tabiatning bor bo‘yi bastini mana shu she‘rida jamlashga harakat qilgan.

Kalit so‘zlar: fasllar, tollar, issiq, soy, yozgi shabada, majnuntollar.

ОБРАЗ ЛЕТА В ТВОРЧЕСТВЕ МАТНАЗАРА АБДУЛХАКИМА

Аннотация. Матназар Абдулхаким, автор стихов, хорошо использующий сиюминутное состояние образа лета и способный привлечь читателя простыми, но реальными примерами, что придает дополнительный смысл нашим представлениям об этом времени года, описывает всю природу лета. природа в этом стихотворении попыталась подвести итог.

Ключевые слова: времена года, ивы, жара, ручей, летний ветерок, ивы.

THE IMAGE OF SUMMER IN THE WORK OF MATNAZAR ABDULHAKIM

Abstract. Matnazar Abdulhakim, the author of poetry, who makes good use of the momentary state of the image of summer and is able to attract the reader with simple but real examples, which gives additional meaning to our imaginations about this season, describes the whole nature of nature in this poem. tried to sum up.

Keywords: seasons, willows, heat, stream, summer breeze, willows.

KIRISH

XX asrning so‘nggi choragida keng tarqala boshlagan yangicha tafakkur, o‘zlikni chuqur anglash, odamlarda milliy faxr tuyg‘usining kuchayishi badiiy ijodkorlik, shu jumladan, she‘riyatimizda ham bir qancha sifat o‘zgarishlarini vujudga keltira boshladi. She‘riyat mavzu va janr jihatdan ancha kengayib, boyidi, fikriy va hissiy teranlik oshib, avvalo, insonni anglash, uning qalb olamini taftish etish, umuman olganda, inson ruhiyatini mutlaqo yangicha badiiy kashf qilish ancha kuchaydi. Ijodkorlarning izlanishlarida esa milliy an‘analardan oziqlangan holda hozirgi Sharq va G‘arb adabiyotidagi avangard tajribalarni ijodiy o‘zlashtirishga keng yo‘l ochildi. Bu esa hayotni bevosita, bo‘yamasdan tasvirlash, shaxs taqdiridagi murakkabliklarni, uning ichki dunyosi, o‘y-fikrlarini xolis, kengroq tadqiq etishda uslub va tahliliy yondashuvlarni yanada takomillashtirishni taqozo qilmoqda.

TADQIQOT MATERIALLARI VA METODOLOGIYASI

Matnazar Abdulhakim Har bir obrazni yaratar ekan, har bir so‘zga alohida falsafiy yuk berishga harakat qiladi. Masalan, uning yoz obrazini yaratgan bir she‘riga diqqatimizni qarataylik:

Jimjit oqib yotar ariqlarda suv
Saodat baxsh etib o‘tga, o‘langa.
Naqadar g‘aroyib yoz fasli bu bog‘
Sirlar o‘lkasidir har bir ko‘lanka.

TADQIQOT NATIJALARI

Ushu she‘rni biz bandma-band olib tahlilga tortamiz. Yoz faslida yashillik bilan birga issiq havo ham rohatbaxshdir. Hatto shimirlab oqib yotadigan ariqdagi suvlarni ham badiiy

adabiyotga mahora bilan olib kiradi. Inson umri ham to'rt faslga qiyoslanishini bilamiz, shundaymi? Demak, yoz fasli insonning atrofni anglay boshlagan, muammolarga erkin, bosiqlik bilan o'ylab, keng mushohada bilan yondashiladigan bir fasliga qiyoslanadi. Mana shu faslda bahorda to'lib-toshib, loyqalanib oqqan ariqlar ham sokinlik pinjiga kiradi. Ariqdan oqayotgan zilol suv mana shu sokinlikda tin olib yangi yerlarga hayot baxsh etish uchun ildam, bir maromda shimirlab oqib boradi. Saodat baxsh etib o'tga, o'langa deydi shoir. Issiqda har bir inson suvga juda ko'p muhtoj bo'ladi. Tez-tez chanqaydi. Mana shunday issiq havoda salqingina, sokin oqib borib tomirlarga yetgan suvdan o't-o'lanlar, dov-daraxtlar huzurlanib, yengil tortadi, xuddi insonlar kabi. Yoz faslida boshqa fasllarga qaraganda g'aroyib ko'rinadi. Sirlar o'lkasidir har bir ko'lanka. Har bir harakatda, har bir belgida, har bir ishorad o'zgacha sirlilik kasb etadigan va kuzatuvchini hayratda qoldiradigan nimadir bor. Shoir Matnazar Abdulhakim buni yaxshi anglaydi. Mana shu ajib go'zallikni badiiy bo'yoqning eng sifatlisi ila bo'yab, chiroyli ishlov berib o'zligini, asliyatini yo'qotmasdan olib kiradi. She'rning davomida baxt ilinjida qushlarning chug'ur chug'urlashi, tole ta'masida tollar to'lg'anishini, Xorazmning ajoyib manzarali daraxti hisobblanmish – gujumlar haqida gapiriladi. Gujum haqida deyarli har bir she'rida yo'l-yo'lakay aytib o'tadi:

Tole ta'masida tollar to'lg'anar,
Qushlar qiy-chuvlashar baxt ilinjida
Barq urib yam-yashil orom oladi
Gujumlar bir-birin pinjinda.

Matnazar Abdulhakim barq urishni yashil rang deb aytyapti. Ya'ni o'simliklar yashil rangda bo'lib tursalargina rivojlanib o'sadi. Shoir mana shuni aytyib, yashil rangda o'sadi deyapti. Jamiyki jonzorlar bo'lsin, nabodat, o'simlik bo'lsin yoz faslida o'zgacha tarovatga o'zgacha ko'rinishga ega bo'ladi. Tolening tamasida tollar to'lg'anar deyishida ham katta ma'no yashirin. Bilamizki, tollar egilib o'sadi. Tole esa baland bo'ladi. Tollar mana shu balandlikdan, mana shu toledan tama qilib shamolda sokin tebranadi. Ariq bo'yidagi egilib turgan tollarning novdalari sekin, ammo bir maromda tebranishi dillarga huzur bag'ishlaydi. Yozda issiq ob-havo bo'lganligi bois ozgina bo'lsa ham salqin joy istaydi bu ko'ngil. Shabadalar esib turgan, majnuntol ostidan oqib o'tadigan ariq yonida biz mana shunday dillarni xushnud qiluvchi orombaxsh havoni, salqin muhitni topamiz.

MUHOKAMA

Ovloq-ovqolarda oshiqlar sarxush,
Bo'salar jimgina hayqirar.
Farrosh kampir yolg'iz... Kuzda xazonlarni
Qanday supurishni qayg'urar.

Oshiqlar tollar tagida visolga yetishlariga ko'p joyda, ko'plab asarlarda guvoh bo'lganmiz. Bu sehrli majnuntol oshiqlarni ham o'zi tomon chorlaydi. Bir-biriga mushtoq dillarni topishtirishda bir vositachi vazifasini bajaradi. Yozdan keyin mana shu yashil bog'lar, sirli majnuntollar sarg'ayib, kuz kelganidan darak beradi. Odatda shaharlarda farrosh kampirlar ko'chalarni supuradi. Kampirlar kuz faslida juda ko'p ishlashlariga to'g'ri keladi. Qanday qilib tozalashni o'ylab o'tirgan kampirni tasavvur qiling. Uni badiiy adabiyotga bekorga olib kirmagan. Chunki yuqorida ta'kidlaganimdek, inson umri ham mana shu to'rt fasl kabidir. Kuz esa umri yakunlanib borayotgan inson timsoli. Matnazar Abdulhakim mana shunga ishora qilib ushbu she'rdagi mana shu badiiy yukni farrosh kampir obraziga yuklaydi. Uning xazon fasli

kelsa qanday qilib bog'dagi barglarni supurishni o'ylashi ham o'zgacha badiiylik asosida yozilgan. Kitobxon uchun tasavvur olamiga eshik ochib beradi va xayolan mana shu holatni tasavvur qiladi.

XULOSA

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, shoir Matnazar Abdulhakim har bir so'zga alohida hurmat bilan qaragan, har birini ehtiyot qilib, mohirkorlik bilan o'z o'rnini topib qo'llashga, oddiy hayotiy voqeani badiiy daraja jihatdan yuksaltirib adabiyotga olib kiradi. Yoz obrazining mana shu bir lahzalik holatidan unumli foydalangan va yoz fasli haqidagi bizning tasavvurlarimizga qo'shimcha ma'no yuklaydi. Oddiy lekin hayotiy misollar bilan kitobxonni o'ziga jalb qila oladigan she'riyat egasi Matnazar Abdulhakim Xorazm elining tabiatining bor bo'yi bastini mana shu yoz obraziga jamlashga harakat qilgan.

REFERENCES

1. Matnazar Abdulhakim "Javzo tashrifi" "Sharq" nashriyat matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati. Toshkent 2008
2. Adabiyot nazariyasi. T.1. – Toshkent: "Fan", 1978.
3. Matnazar Abdulhakim "Fasllar qo'shig'I" Adabiyot va san'at nashriyoti. Toshkent 1986.